

**Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligiga 2024 yil davomida
kelib tushgan murojaatlar bo'yicha tahliliy
AXBOROT**

2024-yil davomida vazirlikka jismoniy va yuridik shaxslardan **902 ta** og'zaki (**6,8%**), **1 744 ta** yozma (**13,1%**), **10 368 ta** (**80,1%**) elektron, jami **13 284 ta** murojaatlar kelib tushgan bo'lib, murojaatlar soni o'tgan yilning mos davriga nisbatan **3,1 foizga (431 taga) kamaygan**.

Kelib tushgan murojaatlarning **19,6% (2602 ta)** o'qishini ko'chirish va qayta tiklash, **17,8% (2365 ta)** qabul jarayonlari va o'qishga qabul qilish, **9,3% (1244 ta)** kontrakt to'lovi, **8,3% (1099 ta)** diplom masalasi, **5,6% (742 ta)** ta'lim muassasasi faoliyatiga oid masalalar, **4,9% (653 ta)** ta'lim muassasasi xodimlari faoliyatidan norozilik, **4,5% (595 ta)** oraliq nazorat va yakuniy davlat attestatsiyasiga oid masala, **4,0% (542 ta)** talabalar turar joyi masalasi, **3,1% (413 ta)** moliyaviy masalalar (ish haqi, stipendiya, moddiy yordam), **2,5% (330 ta)** nodavlat ta'lim tashkilotlari faoliyati, **1,9% (249 ta)** ish masalasi, **18,5% (2450 ta)**ni esa boshqa masalalar tashkil etadi.

Hududlar kesimiga ko'ra murojaatlarning **15 % (1992 ta)** Toshkent shahridan, **10,5 % (1394 ta)** Qashqadaryo viloyatidan, **10,4 % (1375 ta)** Toshkent viloyatidan, **8,3 % (1103 ta)** Farg'ona viloyatidan, **7,5 % (998 ta)** Surxondaryo viloyatidan, **7,5 % (996 ta)** Samarqand viloyatidan, **40,8 % (5426 ta)** boshqa hududlardan kelib tushgan.

Ko'rib chiqish natijalariga ko'ra murojaatlarning **10694 tasi (80,5 %)** qanoatlantirilgan, **1407 tasiga (10,6%)** tushuntirish berilgan, **125 tasing (0,9%)** ko'rib chiqilishi tugatilgan, **20 tasi (0,2 %)** ko'rmasdan qoldirildi, **1038 tasi (7,8%)** hududiy idoralarga va taalluqliligi bo'yicha tegishli vazirliklarga yuborilgan.

2024 yil davomida tasdiqlangan jadval asosida vazirlik rahbariyati tomonidan **18 marotaba sayyor qabullar o'tkazilib**, sayyor qabullarda **244 dan ortiq** murojaatlar ko'rib chiqildi.

Hisobot davrida **4 ta** ta'lim muassasasida jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlarini ko'rib chiqish natijalari bo'yicha **o'rganishlar o'rtkazildi**

Amalga oshirilgan islohotlar natijasida:

nostrifikatsiya va apostil masalasi **50,7 %**ga, ilmiy-innovatsion va startap loyihalar **44,3 %**ga, talabalar o'qishini ko'chirish **26,8 %**ga, diplom va mutaxassislik **26,8 %**ga, qabul jarayonlari va o'qishga qabul qilish masalasi **23,9 %**ga, mehnat munosabatlari va bandlik masalasi **13,8 %**ga **kamayishiga erishildi**.

Murojaatlarni **qanoatlantirish darajasi 20,1 barobarga oshirildi**.